

**HOZIRGI DAVR JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TASAVVUF TA’LIMOTI
G‘OYALARINING AHAMIYATI.**

Islamova Dildora Xamidullaevna

Toshkent davlat texnika universiteti

Falsafa va milliy g‘oya kafedrasida dotsenti

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yuksalish bosqichiga kirgandan so‘ng amalga oshirilayotgan ilmiy, ma‘naviy, madaniy sohalardagi islohotlar natijasida jahon tamadduniga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan mutafakkir allomalarning ilmiy- ma‘naviy merosi, ularning falsafiy ta‘limotlarini har tomonlama o‘rganishga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “Biz ajdodlarimizning donishmandlik an‘analariga amal qilib, ularning g‘oyalarini teran anglagan holda, qat‘iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz” .

Dinimizning muqaddas merosi – falsafa ilmini, xususan, Sharq falsafasini teran o‘rganish, shu asosda ulug‘ madaniyatimiz va qadriyatlarimiz ildizlarini jonlantirish, yaqin o‘tmishdan qolgan mafkuradan xalos bo‘lish, o‘zimizning asrlar sinovidan o‘tgan ulug‘ ajdodlarimiz bizga qoldirgan milliy mafkura va tafakkurimizni tiklash, uni zamonaviy umumbashariy ruh bilan boyitish dolzarb vazifalardan biri ekanligini aytish mumkin.

Tasavvuf milliy o‘zlik va milliy mafkuraning teran ildizlarida biri bo‘lib, so‘fiylik ilmining rahnamolari bo‘lgan tasavvufchilar asrlar davomida kishilarni sog‘lom e‘tiqod, irfoniy tafakkur, ilmiy ma‘rifat va mfi‘tadil madaniyat nuqtai-nazaridan tarbiyalashga xizmat qilganlar.

Z.Isoqova o‘zining “Islom va tasavvufda avliyo ayollarning o‘rni” maqolasida valiyar, tasavvufchilar Allohni zoti va sifatleri bilan taniydigan, Uning buyurganlarini bajarib, gunoh ishlardan saqlanadigan, dunyo lazzatidan yuz o‘giringan va nafsini poklagan, payg‘ambarlar darajasidan keyingi o‘rinda turadigan Xaq yo‘lchilaridir deb takidlaydi . Tasavvufchilar insonni Allohning oliy ne‘mati deb bilganlari hamda umr bo‘yi ma‘naviy poklanish va kamolot sari intilganlari bois xalq nazarida xamisha axloqiy-ma‘naviy pok insonlar sifatida gavalanganlar. Tasavvufchilarning diniy-irfoniy qarashlarini o‘rganish orqali tasavvuf ta‘limotining o‘ziga xos jihatlari, tadrijiy rivojini tahlil etish imkonini beradi. Tasavvuf ham din, ham falsafa bilan bog‘langan ta‘limot. Aniqrog‘i, har ikki hil dunyoqarashni ma‘lum ma‘noda birlashtiradi. Hozirgi vaqtda jamiyatimizda milliy g‘oya va mafkurani kishilar ongi va turmush tarziga singdirish, uni shakllantirish, barkamol avlodni tarbiyalash borasida tasavvufning ma‘naviy merosidan foydalanish katta asamiyat kasb etadi. Zero, tasavvuf ahli kishilarni mutaassiblik va aqidaparastlikka berilmasdan, xalq xizmatini qilib, Xaq rizoligini olishga, xayrli va ezgu amallar qilishga da‘vat etgan. Tasavvuf Sharq falsafasini teran o‘rganish, shu asosda ulug‘ madaniyatimiz va qadriyatlarimiz ildizlarini jonlantirish, uni zamonaviy-umumbashariy ruh bilan boyitishga xizmat qiladi. Hozirgi tahlikali dunyoda, turli nizo va adovatlar hali barham topmagan murakkab bir vaziyatda tasavvufshunos olimlar, valiyar, karomat sohiblari, kashf-u

karomat egalarining hayoti alalhusus, Bahouddin Naqshband singari piri-u komillarining millati, tili, dinidan qat’iy nazar – insonni aziz va mukarram bilish, o‘zaro mehr-oqibat, shafqat va muruvvat muhitini qaror toptirish, yetim-yesirlarning boshini silash, muhtojlarga yordam berish kabi ezgu da’vatlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tasavvufning asosiy mezonlari sifatida beva- bechoralar, nochor oilalardan xabar olib turish, kichik yoshdagilarga izzat xurmat, keksalarga muruvvat ko‘rsatish, gunoh yoki ayb ish qilib qo‘ygan kishilarning aybidan o‘tish, mahkum va maxbuslarga rahmdillik, yordamga muxtoj kishilarga himmat qo‘lini cho‘zish kabilardir. Hadislarda ta’kidlanishicha, mehr-shafqatli kishilar eng yaxshi insonlardir. Halol yo‘l bilan to‘plangan boyliklardan ehson qiluvchi, iffatli, “miskin va bechoralarga rahm-shafqat qiladigan odamlarga ko‘p yaxshilik ulashuvchidir .

Tasavvufshunos olim N.Komilovning fikricha, futuvvatning ijtimoiy mohiyati, uning insonning ma’naviy qiyofasidagi o‘rni va roli masalasida o‘zining fikrini qo‘yidagicha bayon qiladi.

Birinchidan, insonning bir-biriga kamarbastaligi, bir-birini asrovchi va ulug‘lovchi fazilat bu mehrdir.

Ikkinchidan, insonni har qanday sinovdan eson-omon olib o‘tadigan kuch - muhabbatdir.

Uchinchidan, oqibat insonning yuragidagi nur, bu nur hayotimizni, yo‘limizni, orzu-madsadlarimizni yoritib turadi.

To‘rtinchidan, inson tabiatidagi barcha tuyg‘ularda ahillikda aks etadi.

Beshinchidan, shafqat yo‘q joyda hayot bo‘lmaydi.

Oltinchidan, bilish tabiiy xislat bo‘lib, uning mohiyatini anglash dunyoni anglash orqali sodir bo‘ladi.

Yettinchidan, muruvvat irsiyat orqali ma’lum bo‘ladigan merosdir.

Sakkinchidan, oliyjanoblik - insoniylikning va komillikning yuksak pog‘onasidir.

Tasavvuf falsafasining asosiy maqsadi insonning komillik sari intilishi, Alloh tomonidan insonni farishtalardan ham yuqori qo‘yishini amalda tasdiqlashga erishish va ulardan o‘zib ketish masalalari keng targ‘ib qilinadi. Bu esa tasavvufning ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatga xizmat qiluvchi ta’limot ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Tasavvuf qoidalari va ta’limotining asosiy tamoyillarini o‘rganish Sharq ijtimoiy tafakkurining asosiy xususiyati bo‘lgan. ideal jamiyat g‘oyalari yotganligini kurishimiz mumkin. Bunday jamiyatga zo‘rluk, qon to‘kish yo‘li bilan emas, balki inson kamoloti, uning axloqiy tarbiyasi bilan erishish g‘oyalari yotadi. Buni biz Abdurahmon Jomiyning “Xiradnomai Iskandariy” va Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonlarining bosh g‘oyalari bo‘lgan podshohsiz ijtimoiy teng odamlar, solih kishilar jamiyati haqidagi g‘oyalardan bilib olishimiz mumkin. Alisher Navoiy o‘z hukmdori Husayn Boyqaro timsolida adolatli va ma’rifatli podsho qiyofasida ko‘rishni orzu qiladi va uni “tavanno”ya’ni komil inson sifatida talqin qiladi. Astrabodda bo‘lgan kezlarda Husayn Boyqaro va shohzodalarga va boshqa amaldorlarga maktublar yo‘llab ularni adolatga, insofga chaqirar, davlat idora usulida mustahkam tartib o‘rnatish va islohotlar o‘tkazish zarurligiga undar edi. Navoiy ayniqsa, o‘zining Fariddun Attorning “Mantiq ut- tayr” dostoniga javob sifatida yozgan “Lison ut-tayr” dostonining

bosh g‘oyasi, bosh muammo tasavvufdagi imon, e‘tiqod va ma‘naviyat masalalaridir. Navoiyning maqsadi -oddiy insonlarga insoniylikning ilohiy mohiyatini tushuntirib berish, ularni og‘ir sinovlardan o‘tkazib, komil inson darajasiga ko‘tarish. M.Pardaeva o‘zining A.Navoiy asarlarida komil inson g‘oyasi nomli dissertatsiyasida: “Shoir asarda qushlar timsolida tasavvuf yo‘liga kirgan va Allohni ko‘rishga, unga yetishishga astoydil kirishgan solih insonlarni tasvirlaydi. Navoiy o‘zining tasavvuf ta‘limoti bilan bog‘liq g‘oyalarini, Allohning hamma narsaning tashqarisida emas, balki ichida, o‘zida ekanini ko‘rsatish va isbotlashga harakat qiladi. Insonning ulug‘vorligini majoziy uslub bilan ta‘sirli qilib, real ijtimoiy hodisalar bilan bog‘lab tasvirlagan” .Ana shu Ilohiy ishq masalasi tasavvuf falsafasining asosiy xususiyatini tashkil qiladi. Ilohiy ishq- tasavvufda husni Mutlaqqa bulgan shiddatli sevgi vahdati vujudning boshlang‘ichi va oxiri bo‘lmaganidek, Haq tajallisining ham ibtido va intihosi yo‘qdir. Ishaq ilohdan ato etilgan rahmoniy bir ulfatulfatdoshlik tuyg‘usi esa har bir Ruh sohibiga xos. Ilohiy Ishaq g‘oyasining asosida Parvardigor-bir ideal, uning olami esa Mutlaq poklik olami. Ollohga bo‘lgan muhabbat bu faqat tuyg‘u emas, balki Olloh yaratgan barcha narsaga va insonga muhabbat orqali bo‘lishi mumkin. Chunk bu narsalar Ollohning jamoli va kamoli aks etgan narsalardir.

Tasavvufda xuddi shu masalada diniylik va dunyoviylikning o‘zaro bog‘lanishining guvohi bo‘lamiz. Shuni ham unutmaslik kerakki, ilohiy muhabbat- bu irfoniy tuyg‘u, bilish va anglash zavqining namayoni bo‘lishi va ma‘rifat zavqiga aylanishidir. Aynan shu holatda so‘fiy muhabbat otashida yonib, go‘yo moddiylikdan qutulib, yaxlit bir nurga, ma‘rifat parchasiga aylanadi. Chunki, shu bosqichda so‘fiy o‘zini va Ollohni taniydi. So‘fiy aynan shu bosqichdagina ya‘ni ma‘rifatulloh orqaligina saodatga erishadi. Chunki ma‘rifat bir nur bo‘lib, iymon ahli shu ma‘rifat nurlari orqali Ollohga yaqinlashadilar. “Qalbdagi ma‘rifat maydonga kelgach, qalbning holi o‘zgaradi. Ya‘ni amal holga, hol ilmga, ilm esa tafakkurga bog‘liq bo‘lib qoladi” So‘fiyga hech bir narsa va hech bir kishi qaram bo‘lmasligi; uning o‘zi ham hech bir narsaning, hech bir odamning qarami bo‘lmasligi kerak. Xoja Bahouddin Naqshband aytganiday:

“Hechi mo neyu hech kam ne,
Az payi hech-hech-hech g‘am ne,
Janda bar pushtu pusht-go‘riston,
Ro‘ze, ki mirem hech motam ne” .

Ma‘nosi: Hech narsamiz bo‘lmaganligi uchun hech kamimiz yo‘q, o‘sha «hech», ya‘ni narsa ketidan quvib, g‘am ham chekmaymiz. Egnimizda — janda, orqamizda — go‘riston, biz vafot etgan kun hech bir motamning ham keragi yo‘q. Imom G‘azzoliyning yozishicha: “Sog‘lom qalb faqatgina zikrulloh va ma‘rifatullohdan zavq oladi. Chunki, ma‘rifat sohilsiz, tubsiz bir dengiz bo‘lib, hikmat ozug‘idir” . Shu bois tariqatda ma‘rifatni egallamagan solik ishq martabasiga yuksala olmaydi. Agar, tasavvufga shu nuqtai nazardan ta‘rif beradigan bo‘lsak, deb yozadi Najmiddin Komilov, “Tasavvuf ishq otashida tug‘ilgan tug‘yonli tafakkurdir”, degan jumla hosil bo‘ladi” . Demak, har qanday tasavvufiy talqinda inson olam mehvari sifatida o‘zini namayon qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Tasavvufning ijtimoiy jihatlarini tashkil qiluvchi insonni o‘zini- o‘zi tashkillashtirish, axloqiy yuksalish, ezgulik, xayr-ehson, muruvvat

mardlik haqidagi g‘oyalari va qarashlari ijtimoiy hodisa sifatida butun musulmon olamini qamrab olgan edi. Shuning uchun ham so‘fiylar va darveshlar xalq orasida namuna bo‘la oladigan juda katta hurmat-izzatga sazovor bo‘lgan toifalar darajasiga ko‘tarildi. Oddiy xalq ham darvesh va so‘fiylar sifatlarini o‘zlashtirib hayotda qanoatli, sabrli, bardoshli va saxovatli bo‘lishga nafsini tiyishga harakat qila boshladilar. Shuning uchun ham tasavvuf shaytoniy nafsni jilovlash va rahmoniy hislatlarni namayon qilish haqidagi ilm sifatida halq orsida keng yoyganlar. Tasavvufning ana shu adolat, insonparvarlik, nafsni tiyish, haqiqatparvarlik g‘oyalari xalq ichiga kirib bormaganda edi bu ta’limot qudratli bir kuchga aylanmagan bo‘lar edi.

Bugungi kunda mamlakatimizda “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da aynan shu sohaga doir bir qator islohotlar o‘tkazilishi lozimligi, Yangi O‘zbekiston-ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi doirasida yurtimizning boy madaniy va ma’naviy merosini asrab -avaylash bo‘yicha bir qator maqsad va vazifalar belgilab berilgan unga ko‘ra, Taraqqiyot staregiyasining 5- bandi Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish va uning doirasida

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish:

IHT, IRSIKA, AYSESKO, YuNESKO kabi dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari bilan hamkorlikda “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” shiori ostida xalqaro konferensiya, simpozium va anjumanlar tashkil etish;

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish;

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash singari dolzarb va ahamiyatga molik masalalarni yechish ustuvor etib belgilangan.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent.: “O‘zbekiston”,2022. – 412. b.
2. Isaqova Z. Islom va tasavvufda avliyo ayollarning o‘rni. –Toshkent.: Toshkent islom universiteti ilmiy –tahliliy axboroti. 2011. B- 33-38.
3. Qarang: Xamidjon Xomidiy.Tasavvuf allomalari. – Toshkent.: “Sharq”, 2004. 256.b.
4. Pardayeva M. A.Navoiy asarlarida komil inson g‘oyasi.dis.f.f.n.-Toshkent.: 2017.
5. Komilov N. Tasavvuf.Beshinchi kitob. –Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2009. 247.b.
6. Abu Xomid G‘azzoliy. Kimyoi saodat. -Toshkent.: “Movaronnahr”,1998.250.b.